

TASVIRIY SAN`AT

Umumta`lim maktablari «Tasviriy san`at» o`quv fanidan takomillashgan Davlat ta`lim standarti va modernizasiyalashgan o`quv dasturida belgilangan o`quv materiallarini 7-sinf o`quvchilari qay darajada o`zlashtirganliklarini bosqichli nazorat o`tkazish orqali aniqlanadi. Bosqichli nazoratni o`quvchilar amaliy ish orqali bajaradilar. «Tasviriy san`at» o`quv fanidan tayyorlangan amaliy ish (variant)lari o`quv yili davomida o`tilgan mavzular asosida tuzilgan bo`lib, ular o`nta variantdan iborat bo`ladi.

Tasviriy san`at fanidan bosqichli nazoratni o`tkazish bo`yicha berilgan 10 ta amaliy ish (variant)dan bittasi o`quvchilar tomonidan tanlab olinadi. Tanlangan variantni mas`ul o`qituvchi har bir o`quvchiga ko`rinadigan qilib, maxsus moslamaga yoki stolga (m-n: «Natyurmort» postanovkasini) joylashtiradi. O`qituvchi, o`quvchilarga kompozitsiya tuzish, qalamtasvir va rangtasvirda amaliy ishni bajarishi yuzasidan kerakli metodik yo`nalish berishi yoki ma`lum bir tasvir lavhalarini tarqatib so`ngra bayon etib berishi lozim. Jumladan, o`qituvchi tomonidan o`quvchilarga tanlangan variantni boshlashdan avval amaliy ishni oldin qalamda naturaga qarab bosqichma-bosqich tasvirlashi, so`ngra akvarel bo`yoqlar yordamida rang berib, amaliy ishni ohirigacha sifatli, aniq bajarishlari xaqida eslatib o`tadi.

Masalan: «Mevalardan tashkil topgan natyurmort»ni bajarish uchun joylashtirilgan ko`rinish (postanovka), rangli matolar (drapiroverka), mulyajlardan (olma, anor, nok, behi, hurmo va h.k.) va geometrik jism (shar, kub, konus, prizma, piramida, silindr)lardan tuzilgan bo`lib, o`quvchilar bu postanovka tasvirini akvarel (suv bo`yoq) hamda turli o`lchamdagi yumshoq mo`yqalamlardan foydalanib tasvirni bajarishlari haqida aytib o`tadi. Amaliy ishni o`quvchi tanlangan variant asosida bosqichma-bosqich bajarishi va rang berib yakunlagan bo`lishi lozim.

Naturaga tushayotgan yorug` va soyani to`g`ri ta`minlash uchun bosqichli nazorat o`tkazuvchi mas`ul o`qituvchi «Safet» (suniy yorug`lik moslamasi) yordamida bir tomonlama yoritib qo`yishi zarur. Amaliy ishni A4 bichim (format)dagi chizma qog`oziga bajarishlari uchun 1,5 soat (90 daqiqa) vaqt ajratiladi. O`quvchilar natyurmort yoki kompozitsiyani to`g`ri tuzilganligi, qog`oz sathida to`g`ri joylashtirilganligi, ya`ni komponovkasi bosqichma-bosqich chizilganligi, buyum hajmining to`g`ri bajarganligi, tasvirni shakllantirganlik darajasi, ranglarning qo`yilgan postanovkaga nisbatan mutanosibliigi, soya, yarim soya, blik(yorug`)ni tiniq ko`rsata olganligi va o`zlashtirilishi lozim bo`lgan bilim, ko`nikma va malakalar mavzu bo`yicha berilgan amaliy ishda o`z aksini topganligiga ko`ra baholanadi.

TASVIRIY SAN`AT O`QUV FANIDAN BOSQICHLI NAZORAT O`TKAZISH BO`YICHA VARIANTLAR:

1- VARIANT

»O`zbekiston amaliy bezak san`ati» mavzusida kompozitsiya ishlash.

2 -VARIANT

Qalamtasvir yoki rangtasvirda «Nonushta» mavzusida (yopgan non, choynak, piyola va h.k) natyurmort ishlash.

3 -VARIANT

Qalamtasvir yoki rangtasvirda «Mevalar» nomli (savat va turli tabiiy mevalar yoki mulyajlardan foydalanish) natyurmort ishlash.

4-VARIANT

Qalamtasvir yoki rangtasvirda «Ko'za va olmalar» nomli mavzuda (ko'zalar, turli navdagi mevalar, mulyajlar va drapirovkadan foydalanish) natyurmort ishlash.

5- VARIANT

Dizayn san`ati. «Orzuimdagi avtomobil» yoki «Orzuimdagi uy» mavzusida kompozitsiya ishlash.

6 -VARIANT

»Oshxonada» mavzusida uy- ro'zg'or buyumlaridan iborat natyurmort ishlash. (rangtasvir)

7- VARIANT

»Mo'l hosil» nomli (tabiiy sabzovotlar va poliz ekinlari yoki mulyajlardan foydalanish) natyurmort ishlash. (rangtasvir)

8- VARIANT

Amaliy bezak san`ati. «So'zana» uchun ixtiyoriy naqsh ishlash.

9 -VARIANT

Kitobat san`ati yo'nalishi bo'yicha «Zumrad va Qimmat», «Ur to'qmoq», «Shiroq», «Semurg' », «Uch og'ayni botirlar» «Alpomish» kabi adabiy asarlar asosida ixtiyoriy illyustratsiya ishlash.

10- VARIANT

»Natyurmort» Geometrik jismlar (kub, shar, konus) dan iborat naturani qalamtasvirda ishlash.

BOSQICHLI NAZORAT VARIANTLARIDAGI VAZIFALAR QUYIDAGI BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALAR ASOSIDA BAHOLANADI :

1. Tasvir (bajarilgan ish) ning komponovkasi to'g'ri bajarilgan;
2. Topshiriq (natura, kompozitsiya) to'g'ri bajarilgan;
3. Buyumning hajmi, fazoviy holati to'g'ri tasvirlangan;
4. Rang turlari to'g'ri bajarilgan;
5. Kompozitsiya to'g'ri va toza bajarilgan.

Tasviriy san`at o`quv fanidan amaliy ish quydagicha baholanadi

Baholash mezonlari/Ball

1.Tasvirining kompanovkasi to'g'ri qurilgan, topshiriq (natura, kompozitsiya) to'g'ri bajarilgan, buyumning hajmi, fazoviy holati to'g'ri tasvirlangan, ish mavzuga mutanosib bo'lsa.5

2.Tasvirining kompanovkasi to'g'ri qurilgan, topshiriq (natura, kompozitsiya) bajarilgan, buyumning hajmi, fazoviy holati tasvirlangan, ammo bajarilgan ish mavzuga mutanosib emas. 4

3. Tasvirining kompanovkasi to'g'ri qurilgan, ammo topshiriq to'liq (natura, kompozitsiya) bajarilmagan, buyumning hajmi tasvirlanmagan bo'lsa.3

4. Topshiriq kompanovkasi to'g'ri qurilmagan va (natura, kompozitsiya) to'g'ri tasvirlanmagan bo'lsa.2

5. Topshiriq kompanovkasi to'liq qurilmagan va (natura, kompozitsiyani) tasvirlanmagan bo'lsa. 1

Izoh: Topshiriq umuman bajarilmagan bo'lsa «0» (nol) ball qo'yiladi.

Bosqichli nazoratni baholash uchun o'quvchining taqdim etgan amaliy ishi mezon asosida har bir bandi 5 ballgacha baholanib, so'ngra umumiy balndan o'rtacha ball chiqariladi. Bosqichli nazoratni o'tkazish uchun amaliy ish (variant)larga kerakli materiallar avvaldan mas'ul o'qituvchi tomonidan mavzularni o'zgartirmagan holda, mahalliy sharoitdan kelib chiqib, tayyorlagan bo'lishlari zarur.

Amaliy ishni mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda ixtiyoriy A3 bichim (format)dagi chizma qog'oziga bajarishlari mumkin.

Masalan: o'quvchi amaliy ishda yuqorida ko'rsatilgan mezonlar asosida 21 ball olgan bo'lsa, uning bosqichli nazoratdagi o'rtacha bali 4,2 ballni ($22 : 5 = 4,2$), ya'ni yaxlitlagan holda 4 ballni tashkil etadi.